



O'PKA SILI BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA HAMSHIRALIK PARVARISHI VA UNING DAVOLASH METOTLARI.

Umarova Mahliyo

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan Filiali. o'qituvchisi

Shermirzayeva Muhtasar

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan Filiali. talabasi

Toshpolatova nigora

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan Filiali. talabasi

Annotatsiya .Mazkur maqolada o'pka sili (tuberkulyoz) bilan og'rigan bemorlarning kasalik kechishi ,asosiy kilinik belgilari,tashxis qo'yish usullari, davolash jarayoni hamda ijtimoiy –psixologik holati yoritilgan .Maqolada ,shuning dek ,o'pka sili bilan og'rigan bemorlarga ko'rsatilgan tibbiy yordam ,ularning hayot sifati,davolanishga rioya qilish darajasi va jamiyatdagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhumligi haqida malumotlar keltirilgan va aniqlangan.

Kalit so'zlar: o'pka sili, tuberkulyoz, infeksiya. Bakteryas kasallik.

Abstract: This article explores pulmonary tuberculosis its clinical features diagnostic methods ,and current treatment strategies. Tuberculosis remains one of the most prevalent infectious diseases worldwide posing a serious public health threat particularly in developing countries . The study discusses the pathogenesis of pulmonary tb common symptoms and risk factors that contribute to the progress of disease.

Kirish: O'pka sili (tuberkulyoz) –bu Mycobacterium tuberculosis tomonidan chiqarilgan infeksiyon kasallik bo'lib ,asosan o'pka to'qimalariga zarar yetkazadi. BU insoniyat tarixidagi eng qadimiy va keng tarqalgan infeksiyon kasalliklardan biri hisoblanadi. [1].bugungi kunda ham u butun dunyo boylab jiddiy sog'liqni saqlash muammosi bo'lib qolmoqda[2].O'pka sili odatda havo-tomchi yo'li orqali yuqadi . infeksiyaning asosiy manbai-faol sil kasalligiga chalingan bemor bo'lib yo'tal yoki



aksa urishda atrof muhitga infeksiyalar tarqaladi [3]. Infeksiya organizmga tushgandan so'ng bakteriyalar alveolalar joylashadi va u yerda fagotsidlar hujayralar bilan o'zaro tasirga kirishadi. Kuchli immunitetga ega insonlarda infeksiya yashirin holatda saqlanadi. Biroq immunitet susaygan holatda kasallik faollashadi[4].klinik belgilari; uzoq davom etuvchi yo'tal , (3 hafta),Tana haroratini ko'tarilishi , terlash, ozib ketish , holsizlik[5].Labaratoriya tahlili balg'am tahlili ,mikroskopik tekshiruv,Ziehl Neelsen = bo'yicha bo'yalgan balg'am da kislota tayoqchalari. Qon tahlili :umumiy qon tahlili, lekositoz, limfopeniya.ESR=eritrositlar cho'kish tezligi. Ko'tarilgan bo'ladi.

Asosiy tashxis:belgilari yo'tal , akxa urish, balg'am toplanishi , vazn yoqolishi,

Profilaktikasi: vaktsinatsiya; BCG =bacillus galmetta guerin . yangi tug'ulgan chaqaloqlar hayotining 1-7 kunida silga qarshi immunitet xosil qiladi sil bakteriya ogir holatlarni oldini oladi. 100% oldini olmasada og'ir asoratlardan himoyalaydi.

Umumiy sog'lom turmush tarzini shakllantirish; tog'ri ovqatlanish , toza havo , gigena , uyni muntazam shamollatish, sport bilan shug'ullanish.

Robert Koch 1882 yil 24-marta sil kasalligi bakteriyasini aniqlagan .nemis olimi uni ushbu fundamental kashfiyoti tib sil kasalligini tushintirgan.

Methods: Metod:Smear mikroskopiya . (ziehl-neelsen yoki auramin)boyicha ; o'pka silining aniqlash uchun eng ko'p qollanilgan an'anaviy metod. Hisob kitob og'riy bo'lmagan hududlarda tez amalga oshiriladi. Lekin sezuvchanligi past bo'lishi mumkin ayniqsa bakteriya miqdori kam bo'lgan holatlarda va bolalarni immuniteti past bo'lgan holatlarda sezuvchanlik past bolishi mumkin.[6] Mazkur ishni tayyorlash jarayonida tibbiyot muassasalarida o'pka sili bilan og'rikan bemorlarni parvarish qilish tajribasi o'rganildi. Bemorlar bilan suhbatlar o'tkazildi, ularning ahvoli va davolanish jarayoni kuzatildi. Shuningdek, hamshiralarning ish faoliyati,



bemorlarga parvarish ko'rsatish usullari va dori vositalarini berish tartibi tahlil qilindi.

Tibbiy hujjatlar va mavjud adabiyotlar asosida o'pka silining kechishi, davolash usullari hamda parvarish jarayonining samaradorligi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar asosida bemorlarga parvarish ko'rsatishda hamshiralikning ahamiyati va to'g'ri yondashuvning natijalarga ta'siri aniqlab chiqildi. Kulturali usullar, (lowenstein –jense yoki yoki MGIT .Bakteryalarni o'stirish orqali aniqlash; dorilarga chidamlilik testi (drug susceptibitytesting DST) uchun standart metodlardan biri ammo bu metod bir neca hafta talab qilishi mumkin. [7]

Results: Natija: Qisqa mudatli MDR-TB 2013-2015 yillarda rifampitsin-rezistent o'pka tuberkulyoz bo'lgan bemorlar orasida standartlashtirilgan qisqa (9-12) oy rejim sinovida o'tkazilgan va davolanganda natijada 128 bemor doimiy nazoratga olingan; natijada 71.9% davolanishi muvaffaqiyatli yakunlangan. davolash jarayonida muvaffaqiyatsizlik xolatlari 17,2% davolangan 9,4%. Butunlay yoqolgan . 1.5 % o'lgan. [8]

Gaspart Laurent Bayle 1774-1816 yilari .o'pka siliga oid tadqiqotlarni 1810 yilda nashr etkan . u 6ta sil turi haqida tavsiya bergan.

Muhokama: O'pka sili kasalligi asosan 20-45 yosh bazi hollarda bolalar va o'smirlar orasida mehnatga layoqatli aholida ko'proq uchraydi. Kasallikni kechikan xolda tashxislanishi bemorlarning o'z vaqtida shifokorga murojaat qilmasligi , dori –darmonlarni to'liq qabul qilmasligi o'zini sog'ligiga beetibor bo'lishi tozalikka rioya qilmasligi va o'zidagi kasallikni boshqalarga ham tarqalishi asosiy muomolardan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, o'pka sili bilan og'rigan bemorlarni parvarishlash jarayoni kompleks yondashuvni talab etadi. Hamshiralik parvarishi nafaqat dori vositalarini o'z vaqtida berish, balki bemorning ruhiy holatini qo'llab-quvvatlash, to'g'ri ovqatlanish va gigiyena qoidalariga rioya etishini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Sifatli parvarish bemorning sog'ayish jarayonini tezlashtiradi,



kasallikning og'ir asoratlar bilan kechishini kamaytiradi hamda yuqumli jarayonlarning oldini olishga yordam beradi.

Shuningdek, davolash metodlarini to'g'ri tanlash va ularni nazorat ostida amalga oshirish, shifokor va hamshira o'rtasidagi yaqin hamkorlikni talab etadi. Hamshiraning o'z kasbiy bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishi bemorga ko'rsatiladigan yordam sifatini oshiradi. Shu bois, o'pka sili bilan og'rigan bemorlarni parvarishlashda individual yondashuv, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va profilaktik choralarni kuchaytirish tibbiy parvarish samaradorligini ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jurabaeva M. O'pka tuberkulyozi kasalligini davolash modellarining qiyosiy xarakteristikalarini. – 2024.
2. Mamatova, Nargiza Toirjonovna, et al. "Sil bilan kasallangan bemorlarni kompleks davolash samaradorligiga bedakvilinning ta'siri." *Science and Education* 4.2 (2023): 107-117.
3. Axatova V. P. SURUNKALI OBSTRUKTIV O'PKA KASALLIGI BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA BRONX-O'PKA TIZIMIDAGI O'ZGARISHLARNING KLINIK XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL KO'RSATKICHLARI //Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии. – 2025. – Т. 8. – №. 3. – С. 100-103.
4. Ziyayeva M. F. Terapiya //Ichki kasalliklar). Qayta ishlangan va to'ldirilgan. – 2007.
5. Shamsiev T. B., Jumaev M. F. BIRINCHI MARTA ANIQLANGAN BEMORLARDA DORIGA CHIDAMLILIK XUSUSIYATLARI //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 93-97.
6. Jurabaeva, Muxabbat. "O'pka tuberkulyozi kasalligini davolash modellarining qiyosiy xarakteristikalarini." (2024).
7. Toirjonovna M. N., Abduhakimovich A. A., Abduvaliyevich A. B. GIJJA INVAZIYASI KUZATILGAN BOLALARDA O'PKA SILINING KECHISH XUSUSIYATLARI //Journal of cardiorespiratory research. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 74-77.
8. Kuyliyev K. U., Urinov F. K. Sil Bilan Kasallangan Bemorlarning Qalqonsimon Bezi Faoliyatiga Silga Qarshi Davolash Choralarining Ta'siri //Journal of Science in Medicine and Life. – 2024. – Т. 2. – №. 7. – С. 172-178.